



# INNOVATION YO'LLAR: HUQUQ, IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYA CHORRAHASIDA

MAVZUSIDAGI XALQARO  
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



13-may 2026-yil



Toshkent

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY**



**“INNOVATSION YO‘LLAR: HUQUQ, IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYA  
CHORRAHASIDA”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**TO‘PLAMI**

**СБОРНИК**

**тезисов Международной научно-практической конференции на тему**

**«ИННОВАЦИОННЫЕ ПУТИ:**

**НА ПЕРЕСЕЧЕНИИ ПРАВА, ЭКОНОМИКИ И ТЕХНОЛОГИЙ»**

**COLLECTION**

**of theses of the International Scientific and Practical Conference on the theme**

**“INNOVATIVE PATHWAYS:**

**AT THE INTERSECTION OF LAW, ECONOMICS AND TECHNOLOGY”**

**TOSHKENT – 2026**

UO‘K  
KBK  
R

Innovatsion yo‘llar: huquq, iqtisodiyot va texnologiya chorrahasida. [konferensiya materiallari] – Toshkent: 2026. – 868 b.

**Ma’sul muharrir** I.B. Yo‘ldashev

Tahririyat hay’ati: Q.Sh. Xannayev, D.A. Raxmonov, G.A. Matkarimova, I.X. Abduraxmonov, S.Y. Nishanov, S.S. Babayev, N.P. Kurbanova, J.R. Abdurazzoqov, J.R. Davronov, M.Sh. Boymirzayeva.

**Taqrizchilar:** prof., i.f.d., J.H. Ataniyazov; prof., yu.f.d. A.A. Otajonov; prof., psixologiya fanlari doktori (DSc) G.Yu.Baykunosova; f.-m/f., prof., A.R. Hayotov; PhD., dotsent S.B. Ibragimova.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonidagi vazifalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi “2026-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 11-son buyrug‘iga asosan 2026-yil 13-may kuni Tashkent International Universityda “Innovatsion yo‘llar: huquq, iqtisodiyot va texnologiya chorrahasida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi. Mazkur to‘plamda O‘zbekistondagi BMT Migratsiya agentligi, Riga, Latviya Turiba universiteti, Xalel Dosmuhamedov nomidagi Atirau universiteti, TASS VISION LLC kompyuter dasturlari tashkiloti, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, Navoiy innovatsiyalar universiteti, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Tashkent International University va boshqa oliy ta’lim muassasalari professor o‘qituvchilari, olimlar va tadqiqotchilarning raqamli iqtisodiyot va moliyaviy innovatsiyalar integratsiyasi, zamonaviy ta’lim tizimi va ijtimoiy-psixologik rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlar, amaliy matematika va informatsion texnologiyalarning dolzarb masalalari, global kommunikatsiya kontekstida xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy rivoji va transformatsiyasi, Yangi O‘zbekistonda huquqiy islohotlarning dolzarb masalalariga qaratilgan ilmiy tezislari o‘z ifodasini topgan.

Mazkur konferensiya tezislari raqamli iqtisodiyot va barqaror rivojlanish sharoitida yoshlar siyosati, inson huquqlari, zamonaviy ta’lim tizimi va ijtimoiy-psixologik rivojlanish, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy-huquqiy transformatsiyalar, innovatsion yondashuvlar hamda ushbu yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

***Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr mulohazalarga mualliflarning o‘zlari ma’suldirlar.***

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Merry, Alice. Insurance for Small Businesses. Microinsurance Paper No. 43. Geneva: International Labour Organization, 2016.
2. Feyen, Erik; Lester, Rodney; Rocha, Roberto. What Drives the Development of the Insurance Sector? An Empirical Analysis Based on a Panel of Developed and Developing Countries. Policy Research Working Paper No. 5572. Washington, DC: World Bank, 2011.
3. Chatterjee, Arup Kumar; Wehrhahn, Rodolfo. Insurance for Micro, Small, and Medium-Sized Enterprises. ADB Briefs No. 78. Manila: Asian Development Bank, 2017.
4. Chávez, Édgar; Koch-Saldarriaga, Klaus; Quesada, Maria. Improving Access to Finance for SMEs through Secured Lending. Washington, DC: World Bank Group, 2018.
5. Brassell, Martin; Boschmans, Kris. Fostering the Use of Intangibles to Strengthen SME Access to Finance. OECD SME and Entrepreneurship Papers, No. 12. Paris: OECD Publishing, 2019.
6. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Digital Economy Report 2024: Shaping an Environmentally Sustainable and Inclusive Digital Future. Geneva: United Nations, 2024.

## **RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TURISTIK TASHKILOTLARDA AUTSORSINGDAN FOYDALANISH OMILLARI VA SABABLARI**

**Risqulov Ravshanjon Bekto'raevich**

TDSHU Iqtisodiyot va menejment

kafedrası katta o'qituvchisi.

Turizm sanoati tez o'zgaruvchan muhitda kechadigan jarayonlar majmuasidan iborat bo'lib, sohada yetarlicha muvaffaqiyatlar autsorsing va undan foydalanish omillariga bog'liq. Omillar turli shart – sharoitlar negizida shakllanadi va muayyan sabablar ta'sirida qo'llaniladi. Mazkur sabablar mavjud standartlarning yangilanib borishi va takomillashuvi doirasida o'zgarib boradi. O'zgarishlar globallashuvning kuchayishi, turli inqirozlar va pandemiya oqibatlari kabi tendensiyalar bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Bu esa, kompaniyalar oldiga foliyatni turli mezonlar doirasida muvofiqlashtirishni va takomillashtirib borish talablarini qo'ya boshlaydi. Muayyan talablar o'z navbatida sohada ilmiy yondashuvlarga bo'lgan zaruriyatni keltirib chiqaradi.

Bu borada T. Lam, K. Mingu, B. Krishtof, T.G. Somova kabilarning tadqiqotlari shular jumlasidandir. Turizm sanoatining doimiy o'zgarishlar dinamikasi xususiyatiga ega ekanligi uning mijozlari talabining turfa xilligi bilan izohlanadi. Bu omillarning strategik maqsadlarini ifodalaydi. T. Lam [1] turizm sohasida autsorsingdan foydalanishda ishlab chiqarishni kengaytirish, daromadlarni oshirish, ekspluatatsion va autsorsing havflarini qisqartirish sabablarini strategik omillar sifatida baholaydi. Muallif omillardan foydalanish mexanizmlarini turizm sanoati va tashqi yetkazib beruvchi kompaniyalar o'rtasidagi munosabatlarga qaratadi. Mazkur kategoriyalar autsorsing maqsadlari doirasida o'zaro tushunish va ishonchli hamkorlik zarurligini ta'kidlaydi. Autsorsing munosabatlarida kategoriyalarning barcha bo'g'inlari birdek, boshqaruvdan to quyi pog'ona xodimlarigacha jalb etilishini anglatadi. Bu esa, autsorsingdagi barcha masalalarga o'zaro yechim topish imkonini beradi. Shundagina autsorsing muvaffaqiyati ta'minlanadi. Muallif fikricha, autsorsing doimiy ravishda uzoq muddatli strategiyaga asoslanishini zarur.

Tadqiqotchi K. Mingu [2] past harajatli ishlab chiqarish va barqaror raqobat ustunligini ta'minlash mexanizmlari yetishmasligi sharoitida kompaniyalarning autsorsingdan foydalanish zaruriyati yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Bunda harajatlarni qisqartirish va bir qancha omillar autsorsingni qo'llanilishiga imkon beradi. Transaksion chiqimlarni tartibga solishda Kralich harjatlar portfeli modelidan foydalanishni taklif etadi. Unda asosan ikkita, foydaga ta'sir etish va autsorsing havfi ko'rsatkichlari muhim sanaladi. Shu orqali kompaniyalar strategik autsorsingda premial tovar va xizmatlar yaratish, bozorda raqobatbardoshlikka xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Raqobatbardoshlik sharoitining yuzaga kelishining o'zi kompaniyada autsorsingdan foydalanishga rag'batni kuchaytiradi. Sababi kuchli raqobatni hosil qilish bir qancha ichki va

tashqi omillarga bog'liq. Bu borada K. Borodako va boshqalar turizm industriyasida autsorsingdan foydalanish omillari sifatida harajatlarni qisqartirish, sifatni oshirish, moslashuvchanlik, xizmat ko'rsatishni yaxshilash, bilim va texnologiyalarga ochiqlik, harajatlarni nazorat qilish, havflarni kamaytirish, asosiy faoliyatga konsentratsiyalashuv, qo'shilgan qiymatni yaratish hamda xodimlarni rag'batlantirish kabi faktorlarni keltiradi. [3]

Turizm sanoatida autsorsingdan foydalanish bir bosqichdan ikkinchi holatga o'tish jarayoni hisoblanadi. Bunda tanlangan maqsad autsorsing mexanizmlarini belgilaydi. Yuqorida tanishib o'tgan mualliflar ishlarida ham turizmga strategik, taktik, innovatsion maqsadlar doirasida autsorsing omillari qo'llanilgan.

Mehmonxona biznesi ham ko'p bosqichli hayot sikliga ega. Bu borada T.G. Somova [4] har bir bosqichda yuzaga keladigan turli sabablar, jumladan harajatlarni qisqartirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish sharoitlarda autsorsingi qo'llash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi tadqiqotchilar ishlaridan kelib chiqqan holda, autsorsingdan foydalanish omillarini quyidagi sabablar yuzasidan kelib chiqadi deyish mumkin. Bular:

- Raqobat keskinlashuvi;
- Harajatlarning ortishi;
- Faoliyat samaradorligi pasayishi;
- Xizmat ko'rsatish sifati va daromadlar tushishi;
- Ichki bozorda import tovarlarning to'lishi;
- Avtomatizatsiya va innovatsiyaning eskirishi;
- Tarif narxlarini oshirish kabilar shular jumlasidandir.

Mazkur sabablar natijasida kompaniya asosiy faoliyatga konsentratsiyasini kuchaytirishi ortidan ikkilamchi vazifalar diqqat e'tibordan qoladi va ularni autsorsingga berish yuzaga keladi.

Autsorsing omillari foydalanish maqsadlari nuqtai nazaridan iqtisodiy, strategik, innovatsion va texnologik omillar guruhiga ajratish mumkin.

Iqtisodiy omillar guruhiga harajatlarni qisqartirish, yangi texnologiyalarga intilish, bilim va tajribalarni egallash, havflarni kamaytirish kabi ko'rsatkichlarga bog'liq omillarni kiritdik. Strategik omillarga esa, kompaniya bor diqqat e'tiborini asosiy faoliyatni optimallashtirishga uzoq muddatli maqsadlarga xizmat qilishga yo'naltirilgan omillar kiradi. Innovatsion omillar kompaniya faoliyatini zamonaviy bilim va tajribalar asosida rivojlantirishga turtki beruvchi ko'rsatkichlardan tashkil topgan. Texnologik omillarga kompaniya raqobat muhitida o'z mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Autsorsingdan foydalanishning ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud. Ijobiy oqibatlarga iqtisodiy samaradorlik, asosiy faoliyatga konsentratsiyalashish, xizmatlar turlari ko'payishi, resurs va texnologiyalarga keng ko'lamdagi ochiqlik, moslashuvchanlik, global miqyos shular jumlasidandir. Uning salbiy oqibatlariga sifat muammosi, tashqi kompaniyalarga bog'liklik ortib borishi, turli to'siqlar, ma'lumotlar xavfsizligi, kutilmagan harajatlar kabilar taalluqlidir.

So'nggi yillarda turizm sanoatining iqtisodiy va ishlab chiqarish samaradorligini baholash bu borada olib borilgan tadqiqotlarning asosiy predmetiga aylanmoqda [5]. Iqtisodiy samaradorlik – transaksion va ekspluatatsion harajatlarni qisqartirishi yuzasidan kelib chiqadi. Bu esa hozirgi kundagi turkompaniyalar raqobat ustunligidagi asosiy instrumentlardan biri hisoblanadi. Mazkur instrumentlar turizmga ishchi kuchi, infratuzilmalar va texnik ta'minot kabi ikkilamchi vazifalarni autsorsingga berish bilan belgilanadi.

Bu borada qator olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra autsorsing, kompaniyalarning 46 foiz harajatlarni iqtisod qilishga olib kelgan [6]. Shuningdek, McKinsey Global Institute ning 2003 yildagi tadqiqotiga binoan IT autsorsing AQShda kompaniyalarning 60 foiz harajatlarini qisqartirishga imkon bergan [7] bo'lsa, Deloitte tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qatnashgan kompaniyalarning 64 foizi autsorsingdan foydalanishning asosiy motivi sifatida harajatlarni qisqartirishni qayd etishgan [8]. Bundan bilish mumkinki, harajatlarni qisqartirish turkompaniyalar uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga erishishdagi ma'lum moliyaviy qiyinchiliklarni chetlab o'tish orqali ularga yetishishga imkon beradi.

Turizmda iqtisodiy samaradorlikka erishishga olib keluvchi omillarni shartli ravishda iqtisodiy faktorlar guruhidan foydalanish evaziga yuz beradigan jarayon deb hisoblash mumkin.

Turizmda outsorsingni navbatdagi ijobiy ta'sirlari asosiy faoliyatga konsentratsiyalashishdir. Faoliyatga diqqat e'tiborni yo'naltirish kompaniyaning strategik omillari asosida yuzaga kelib, bu esa, rejalashtirish va ishlab chiqaruvchanlik o'rtasidagi aloqalarni shakllantiradi va muvaffaqiyatga olib kelishini ta'minlaydi [9]. Rejalashtirish va ishlab chiqarish tovar va xizmatlarni yaratishga uni marketing qilishga va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishiga turtki beradi. Mazkur jarayonlarni kompleks amalga oshirish kompaniya boshqaruviga bog'liq. Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, turizm sanoatida outsorsingdan foydalanishdagi strategik omillarni muvaffaqiyatli qo'llanilishida liderlik yondashuvi katta rolni o'ynaydi. Xususan turizm sanoatida strategiyani amalga oshirishda boshqaruvdagi yetakchilik roli ulushi 40.15 foizni tashkil etsa, boshqa sohalarida bu ko'rsatkich 28 foizga teng bo'lgan [10]. Demak, turizmda strategik omillarni qo'llash orqali asosiy faoliyatga konsentratsiyalashish kompaniyaning yetakchilariga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Turizmda outsorsingdan foydalanishning yana bir oqibati xizmatlar turlari ko'payishi hisoblanadi. Zamonaviy yetakchi texnologiyalar va innovatsiyalarning qo'llanilishi tovar va xizmatlar sonining oshishiga olib keladi. Bu esa, texnologik omillarga ochiqlik sharoitida shakllanadi. Texnologik omillar sifatli biznes muhit yaratishda muhim rolni o'ynaydi [11]. Turizm qulay muhit sohaning havfsiz va samarali bo'lishidan iborat jarayon hisoblanadi. Pirovardida bugungi kunda onlayn turizm bozori salmog'i oshishiga va turizm sanoatining raqamlashishi kuchayishiga olib kelmoqda. Raqamlashtirish turistlarga bir vaqtning o'zida bir nechta xizmatlardan bevosita foydalanishga imkon beradi. Bu esa, sohada texnologik instrumentlardan foydalanish ko'lamini kengaytirmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra 2016 – 2021 yillarda Yevropa ittifoqidagi turoperator va turagentlarning internet orqali xizmatlarni sotib olishi 29 foizdan 54 foizga, elektron pochta xizmatlar savdosi 20 foizdan 43 foizgacha, dasturiy ta'minotlarni sotib olish 14 foizdan 37 foizgacha oshgan [12].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Lam T., Han M.X.J. 2005. A study of outsourcing strategy: a case involving the hotel industry in Shanghai, China. *Hospitality Management*, Vol. 24, 41–56. <https://doi.org/10.1016/j.ijhm.2004.04.002>
2. Ming K., Xiaobo Wu, Paul C Hong. Strategic Outsourcing for Sustainable Competitive Advantages: Case studies of Multi-National Corporations (MNCs) in China. November 2009 *Strategic Outsourcing An International Journal* 2(3):240-256. DOI: 10.1108/17538290911005153. R 240-256.
3. Krzysztow Borodako, Jadwiga Berbeka, and Michał Rudnicki. External and Internal Factors Motivating Outsourcing of Business Services by Meeting-Industry Companies: A Case Study in Krakow, Poland. *Journal of Convention & Event Tourism*, 16:93–115, 2015. Copyright © Taylor & Francis Group, LLC. ISSN: 1547-0148 print / 1547-0156 online. DOI: 10.1080/15470148.2015.1013170.
4. Somova Tatyana Grigorevna. Povyshenie effektivnosti primeneniya uslug outsorsinga na raznykh etapax jiznennogo sikla gostinichnykh predpriyatiy. *Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk*. M.: 2020. S185, s 50-58.
5. Sharon Hadad ets. The economic efficiency of the tourism industry: a global comparison. *Tourism Economics*, 2012, 18 (5), 931–940 doi: 10.5367/te.2012.0165. p 932.
6. Qarang. Tibor Kremic, Oya Icmeli, Tukel and Walter O.Rom. Outsourcing decision support: asurvey of benefits, risks, and decision factors. *Supply Chain Management: An International Journal* 11/6 (2006) 467–482. R 468.
7. Qarang. Abidemi Akinyemi. Outsourcing to the Developing Economy: Its Impacts on GDP and Unemployment. A Case Study of India and the United States of America. South Dakota State University 2016. P 73. P 15.
8. Deloitte. Strategic outsourcing for success. Summary results of the 2008 outsourcing report. P 6. P 2.

9. Comfort Akinbola. Strategic factors influencing growth in small and medium-sized enterprises. Thesis Centria University Of Applied Sciences Business Management June 2019. R-40. R-3.

10. Dr. Willy Muturi and ets. Factors Influencing Strategy Implementation in the Tourism Industry: A Study of Maasai Mara National Park in Kenya. European Journal of Business and Management. ISSN 2222-2839 (Online) Vol.8, No.7, 2016. R – 10. R – 4.

11. Kozubikova, L., Kotaskova, A. (2019), “The Impact of Technological Factors on the Quality of the Business Environment”, Transformations in Business & Economics, Vol. 18, No 1 (46), pp. 95-108. R-98.

12. <https://www.statista.com/statistics/1231753/travel-agencies-cloud-computing-services-eu/> (18.03.2024 y murojaat qilingan).

## **ZAMONAVIY BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY BAZASI VA TASHKIL ETISH TARTIBI**

**G'aniyeva Nozima Alijon qizi**

NamDTU “Buxgalteriya hisobi”

kafedra assistenti

[nozimaganieva40@gmail.com](mailto:nozimaganieva40@gmail.com)

Har qanday davlatning iqtisodiy qudratini yuqori samarali pul- kredit siyosati va zamonaviy to'lov mexanizmlarisiz tasavvur yetib bo'lmaydi. Hisob-kitoblar mexanizmining yaxshi yo'lga qo'yilishi va uning aniq ishlashi yesa barcha rivojlangan davlatlar taraqqiyotining asosiy poydevori hisoblanadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, O'zbekistonda yelektron to'lovlar va yelektron tijorat tizimlarini rivojlantirish maqsadida mazkur muhim yo'nalishning tadrijiy rivojlanishini ta'minlovchi zarur huquqiy baza yaratilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan iqtisodiyot tarmoqlari, ayniqsa, bank, moliya va tijorat tuzilmalari faoliyatida keng foydalanish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori [2], 2012 yil 16 iyuldagi “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, lisenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib- taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi [3] hamda 2012 yil 18 iyuldagi “Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida”gi [4] Farmonlarida asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu me'yoriy hujjatlarda plastik kartalar va boshqa elektron to'lov vositalari orqali internet tarmog'idan tovar hamda xizmatlar uchun to'lov imkoniyatlarini rivojlantirish uchun dasturiy-texnik infratuzilmani takomillashtirish, tadbirkorlikda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish maqsadida rag'batlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

Ma'lumki, mamlakatimizda iqtisodiyotga zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining kirib kelishi korxonalar bilan iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda O'zbekistonda elektron to'lovlar, internet global tarmog'i va mobil aloqa vositalari orqali bank sohasi mijozlariga turli xildagi interaktiv xizmatlar ko'rsatish tizimlari joriy etilib, ulardan samarali foydalanilmoqda. Iqtisodiy integratsiya va globallashtirish sharoitida xo'jalik sub'yektlari, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi vakillari tomonidan o'z faoliyatlarida yelektron to'lovlar, yelektron tijorat imkoniyatlaridan samarali foydalanish ularo'rtasidagi o'zaro sog'lom raqobatni mustahkamlash bilan bir qatorda yuqori iqtisodiy natijalarga yerishish omili ham hisoblanadi.

Bugun bank-moliya tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'sib boruvchi global tendensiyasi, bank plastik kartalari miqdorining o'sishi, elektron to'lovlar va yelektron tijoratning rivojlanib borishi barobarida mamlakatimizda yelektron to'lovlar va elektron tijorat sohasidagi loyihalarning amalga oshirilishi faollashmoqda. Mamlakatimiz bank-moliya muassasalari o'z mijozlariga internet global tarmog'i va mobil aloqa vositalari orqali masofadan turib elektron to'lovlar, “SMS-banking”, “Mobil-banking” kabi interaktiv bank